

TELEKOMUNIKATSIYA TIZIMIDA MOLIYAVIY HISOBOT AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH

Xusanov Ulugbek Nishanovich
Toshkent moliya instituti tadqiqotchisi

Абстрактный

В данной статье разработаны научные предложения и рекомендации по совершенствованию аудита финансовой отчетности в системе телекоммуникаций. Изучены недостатки проведения аудита и формирования аудиторских заключений в соответствии со стандартами, предложены пути устранения недостатков.

Ключевые слова. Аудитор, аудит, финансовая отчетность телекоммуникаций, аудиторское заключение, исследуемый отчетный период, достоверность данных, анализ, результаты анализа.

Abstract

In this article, scientific suggestions and recommendations have been developed regarding the improvement of the audit of financial statements in the telecommunications system. Deficiencies in conducting an audit and forming auditor's conclusions in accordance with the standards were studied, and ways to eliminate the deficiency were proposed.

Key words. Auditor, auditing, telecommunications financial reporting, audit report, reporting period under study, data reliability, analysis, analysis results.

Annotatsiya. Ushbu maqolada telekommunikatsiya tizimida hisobot auditini takomillfshtirish yuzasidan ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Standartlarga muvofiq auditorlik tekshiruvini o'tkazish va auditorlik xulosalarini shakllantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar. Auditor, auditorlik tekshiruvi, telekommunikatsiya tizimi, auditorlik xulosasi, o'rganilgan tekshiruv davri, ma'lumotlar ishonchligi, tahlil, tahlil natijalari.



Auditorlik amaliyotida auditorlarni belgilangan standart me'yorlarini to'liq anglab etmasliklari, tekshirilayotgan sub'ekt rahbariyati yoki hisob tizimi xodimlari tomonidan o'rganilayotgan moliyaviy hisobot davrida amalga oshirilgan, biroq auditorlik xulosasi tuzilayotgan sanagacha yoki xulosa tuzilgan sanada aniq bo'lgan tekshirilayotgan sub'ekt faoliyatiga aloqador moliyaviy ko'rsatkichlar bo'yicha moliyaviy hisobotga o'zgartirishlar kiritish hamda aniqlangan holat bo'yicha auditor xulosasi (fikri)ni shakllantirish kabi masalalarni tadqiq etish muhimligicha qolmoqda. Tahlillar natijasida, bugunga qadar moliyaviy hisobot tuzilgan sanadan keyingi hodisalarni aniqlash va bu haqida auditorlik xulosasi(fikr)ini shakllantirish tartibi yaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar, o'quv adabiyotlari va tadqiqotlarda etarlicha yoritilmaganligi ma'lum bo'ldi (birgina moliyaviy hisobot tuzilgan sanadan keyingi hodisalar nomli milliy standartdan boshqa me'yoriy hujjat ishlab chiqilmagan)ligi ma'lum bo'ldi.

O'z navbatida majburiy audit yakunida o'rganilayotgan hisobot davri tugagan va auditorlik xulosasi imzolanadigan sanagacha yoki xulosa rasmiylashtirilgandan keyingi davrda aniqlangan o'rganilayotgan hisobot davriga aloqador bo'lgan muomalalar to'g'risidagi axborotlar ishonchligini baholash auditor majburiyatlaridan sanaladi yoki ushbu masalani auditorlar tomonidan o'rganilmasligi moliyaviy hisobot ishonchliligiga jiddiy ta'sir etishi mumkin. Yuqoridagi 560 son auditorlik xalqaro standarti talablari va auditorlik amaliyoti natijalari shuni ko'rsatadiki, moliyaviy hisobot tuzilgan sanadan keyin yuz bergan muomalalar hisobot tuzilgan sanada yoki mazkur sanadan avval aniq (ma'lum) bo'lgan muomalalarni tasdiqlovchi ma'lumotlar va aksincha, ya'ni, oldindan ma'lum bo'lmagan ko'rsatkich(ma'lumot)larni asoslovchi muomalalarni o'z ichiga oladi.

Bizningcha birinchi turkumdagi muomalalar moliyaviy hisobot tuzilgan sanada ma'lum bo'lgan ma'lumotlar ishonchliligini qo'shimcha ravishda asoslovchi ma'lumot (dalil) hisoblanib, ular moliyaviy hisobot davridagi ko'rsatkichlarga ta'sir etadi. Bunday mazmundagi ma'lumotlar esa o'rganilayotgan moliyaviy hisobotga o'zgartirish (tuzatish) kiritish orqali hisobot ishonchliligini ta'minlash imkonini beradi va agarda auditor ishonchli dalillarga ega bo'lmasa tekshiruvni o'tkazishdan bosh tortishi mumkin. Ushbu holatga misol o'rnida moliyaviy hisobot tuziladigan sanada tekshirilayotgan korxonada debitorlik qarzini debitorlar tomonidan qoplanishi hisobga olingan, lekin auditorlik xulosasi tuziladigan davrda debitorning to'lovga qobiliyatsizligi oqibatida qarz to'lanmagan. Korxonada buxgalteriyasi esa ushbu qarz



qoplanishini shubhali qarzar bo'yicha rezerv orqali buxgalteriya schyotlariga o'zgartirishlar kiritishiga to'g'ri kelgan. Auditor esa tekshirilayotgan korxonada buxgalteriyasidagi rezervdan foydalanish bo'yicha kiritilgan o'zgartirishlarni firibgarlik yoki xato sifatida baholay olmaydi (ataylab uyushtirilmagan muomala), chunki tekshirilayotgan korxonada debitorning moliyaviy holatidagi o'zgarishlar to'g'risida haqiqiy ma'lumotga ega bo'lmaganligi uchun ushbu summani moliyaviy hisobotda majburiyat sifatida aks ettirmaganligi ma'lum bo'lishi mumkin. Biroq amaliyotda shunday holatlar uchraydiki, tekshirilayotgan sub'ektga debitorlik qarzi mavjud bo'lgan korxonada o'z qarzini ma'lum oylar moliyaviy holatining yomonlashganligi bois to'lovlarda uzilishlarga yo'l qo'ygan bo'lsa, bu debitorlik qarzini tekshirilayotgan korxonada debitorlik majburiyati sifatida aks ettirishi lozim, aks holda korxonada moliyaviy hisobotda debitorlik majburiyatini yashirgan yoki oshirib ko'rsatgan deb baholanishi mumkin.

Moliyaviy hisobot tuzilgan sanadan keyin yuz bergan lekin, oldindan ma'lum bo'lmagan ko'rsatkich (ma'lumot) larni asoslovchi muomalalarga misol sifatida moliyaviy hisobot shakllantirilayotgan davrda yoki undan avvalgi davrlarda amalga oshirilmagan, lekin auditorlik xulosasi ramiylashtirilgunga qadar ma'lum bo'lgan muomalalar natijalarini hisobotda aks ettirilishi jarayonidir. Ushbu turkumdagi muomalalarning xususiyat shundaki, ular bo'yicha hisobotlarga o'zgartirish (tuzatish) kiritish zarur bo'lmaydi, ular mazmunini moliyaviy hisobotning tegishli ilovalariga qo'shimcha yoki o'zgartirish sifatida kiritish maqsadga muvofiqdir. Bu holatga amaliy misol sifatida moliyaviy hisobot davri tugagan sanada auditorlik tekshiruvidan o'tkazilayotgan korxonada tabiiy ofat (zilzila, yong'in) oqibatlarini moliyaviy hisobotda aks ettirilishini keltirish mumkin. Agarda korxonada moliyaviy hisobotda tabiiy ofat oqibatlari aks ettiriladigan bo'lsa, amaldagi moliyaviy hisobotning aktiv (asosiy vosita) lar qismida hisobotdagi va haqiqatdagi ma'lumotlar o'rtasida jiddiy tafovut yuzaga kelishi mumkin va tabiiy ofat oqibatlarini hisobot davri tugagandan keyingi davrga taalluqli hisoblanadi. Yuqoridagilar korxonaning amaldagi moliyaviy hisobotiga o'zgartirish (tuzatish) kiritishni talab etmaydi va tabiiy ofat natijalarini moliyaviy hisobotning tegishli ilovalariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish orqali aks ettirish etarli hisoblanadi. Sababi tabiiy ofat moliyaviy hisobot davri tugagandan keyin yuz bergan va moliyaviy hisobot tuzilgan sanada korxonada aktiv (asosiy vosita) lari qiymati haqiqiy holatni o'zida aks ettirgan va boshqalar.

Ta'kidlash joizki, yuqoridagi kabi moliyaviy hisobotlar tuzilgan sanadan keyin sodir



bo‘lgan har qanday holatlarni moliyaviy hisobot ilovalarida aks ettirish maqsadga muvofiq hisoblanmaydi. Jumladan, tekshirilayotgan korxonada ishlab chiqarish texnologiyasining o‘zgartirilishi, tekshirilayotgan sub’ekt ayrim tarkibiy bo‘linmalar faoliyatining qisqarishi yoki yopilishi (to‘xtatilishi) oqibatlarini moliyaviy hisobot yoki uning ilovalariga kiritish zarur emas. Buning sababi, ushbu yo‘qotishlar korxonada moliyaviy hisobot tayyorlangan sanasidan keyin sodir etilganligi va uning oqibatlari uchun javobgarlar zimmasiga olib borilishini hisobga olish maqsadga muvofiqdir. Yuqoridagi kabi hodisalar amalga oshirilgan muddatga tegishli bo‘lgan moliyaviy hisobotlarda aks etirilishi lozim. Shuningdek auditorlik tashkiloti xulosani tayyorlab bo‘lgandan keyin tekshirilayotgan korxonada faoliyati(moliyaviy hisoboti) tuzilgan sanadan keyin amalga oshirilgan muomalalar hisobot ilovalariga kiritilmaganligini aniqlasa, ularni aniqlashtirish maqsadida to‘liq tekshirishi lozim. Agarda hisobotdan keyin sodir bo‘lgan muomalalar uning e‘tiboridan chetda qolganligi to‘g‘risida dalillarga ega bo‘lsa, korxonada rahbariyatidan ushbu ma‘lumotlarni auditorlik xulosasi va moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilarga etkazishni so‘rashi lozim. Tekshirilayotgan korxonada rahbariyati foydalanuvchilarni xabardor qilishni rad etgan hollarda esa, tekshirilayotgan korxonada kuzatuv kengashi, ta‘sischilari va asosiy hisobotdan foydalanuvchilarni bu haqida ma‘lum qilishi maqsadga muvofiq.

Moliyaviy hisobot tuzilgan sanadan keyingi sodir bo‘lgan va auditorlik xulosasi tuzilgan yoki xulosa tuzilgungacha amalga oshirilgan muomalalar mazmunini aniqlashtirish va ushbu muomalalarni moliyaviy hisobotlarga ta‘sirini baholashda 560 son “Keyingi hodisalar” nomli auditning xalqaro standarti me‘yorlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Amaliyotda esa tahlillar shuni ko‘rsatadiki, auditor yoki auditorlik tashkiloti mazkur standart talablariga murojaat etmagan holda o‘z sub’ektiv yondashuvlari asosida tekshiruvni o‘tkazish holatlari kuzatilmoqda, biroq ushbu standart talablariga rioya etish auditorning asosiy majburiyati sanaladi. Shu maqsadda 560 son xalqaro standartda moliyaviy hisobot tuzilgan sanadan keyingi hodisalar, moliyaviy hisobot tuziladigan sana, auditorlik hulosasi imzolanadigan sana hamda moliyaviy hisobot taqdim etiladigan sana kabi asosiy tushunchalar mazmuni aniqlashtirilgan.

Yuqoridagi standart talablariga muvofiq auditorlik xulosasini tasdiqlashdan avval auditor xulosani tasdiqlashga qadar moliyaviy hisobotda aks ettiriladigan yoki hisobotga tegishli o‘zgartirishlar kiritilishini talab etuvchi barcha holatlarni ifodalovchi ko‘rsatkichlar o‘rganilganligi va baholanganligiga tahlil etishi talab



etiladi. Auditor tekshirilayotgan korxonada faoliyati bo'yicha xulosani tasdiqlashdan avval korxonada moliyaviy hisobotiga tuzatishlar kiritish yoki hisobotning barcha ko'rsatkichlari ishonchligi o'rganilganligini aniqlash maqsadida quyidagi amallarni bajarishi talab etiladi:

- korxonaning moliyaviy hisobot tasdiqlangan sanadan keyin amalga oshirgan yoki auditorlik xulosasi tasdiqlangunga qadar amalga oshirilgan muomalalarni aniqlash yoki ularni baholash ehtiyojlari holatini o'rganish;
- korxonada moliyaviy hisobot tuzilgan sanadan keyin sodir o'tkazilgan kuzatuv kengashi, ta'sischi yig'ilishi bayonnoma va qarorlari, korxonada rahbari buyruqlari mazmuni bilan tanishib chiqish hamda ularda tahlil etilgan masalalarni o'rganish;
- korxonada biznes-rejasi, smeta va kelgusi faoliyat rejalari, hujjatlari hamda boshqa moliyaviy hisobotlari mazmunini o'rganish;
- korxonada huquqshunosining huquq-tartibot organlarida muhokama etilgan moliyaviy masalalariga aloqador hujjat va qarorlari mazmunini o'rganish (ular mazmuni bilan tanishish imkoniyati bo'lsa);
- tekshirilayotgan sub'ekt rahbariyatidan moliyaviy hisobot tuzilgan sanadan keyin sodir bo'lgan korxonada debitorlik va kreditorlik majburiyatlarida sodir bo'lgan o'zgarishlar, korxonada mulki va balag'lari bo'yicha kafillik shartnomalarini tuzilganligi, korxonada aktivlari sotilishi bo'yicha ma'lumotlar, aktivlarni istiqbolda sotishning rejalashtirilganligi, qimmatli qog'ozlar bo'yicha muomalalarnin joriy va istiqboldagi holati, korxonada faoliyatini kengaytirish, tugatish, yoki faoliyatni boshqa sub'ekt faoliyatiga qo'shish yoki tugatish bo'yicha rejalashtirilgan vazifalar, mulklarni davlat tasarrufiga o'tkazish, xususiy lashtirilishi, korxonada mulki hajmiga tabiiy ofatlar ta'siri, firibgarlik yoki xatolarning korxonada faoliyatiga ta'siri, buxgalteriya schyotlari va hujjatlariga kiritilgan tuzatishlar va hisob siyosati qoidalariga kiritilgan o'zgartirishlar to'g'risida ma'lumotlar olish yoki so'rov jo'natish.

Agarda tekshirilayotgan sub'ektning tarkibiy bo'linmasi boshqa auditorlik tashkiloti tomonidan tashabbus tarzidagi yoki nazorat qiluvchi va huquqni muhofaza qiluvchi organlar tashabbusiga ko'ra auditorlik tekshiruvidan o'tkazilayotgan bo'lsa, korxonada moliyaviy hisoboti tuzilgandan so'ng amalga oshirilgan muomalalarga aloqador masalalarni o'rganishi, aniqlangan holatlarni hujjatlarda umumlashtirishi, shuningdek boshqa auditorlarni o'z tekshiruv natijalari bo'yicha xulosasini yakunlash muddatlari haqida ogohlantirishi maqsadga muvofiq.

Amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar va auditorlik standartlari talablariga ko'ra



auditorlik tashkiloti moliyaviy hisobot bo'yicha xulosa tuzilgan sanadan keyingi amalga oshirilgan ko'rsatkichlarni moliyaviy hisobotda aks etirilishi bo'yicha javobgar sanalmaydi, biroq tekshirilayotgan korxonada moliyaviy hisobot e'lon qilingan sana va auditorlik xulosasi rasman e'lon qilingan sana oraliq'ida amalga oshirilgan muomalalar va ularning moliyaviy hisobot ko'rsatkichlariga ta'siri (bog'liqligi) to'g'risida auditorlik tashkilotini xabardor qilish majburiyati mavjud. Agar auditorlik tashkiloti korxonaga rasman xulosani taqdim etilgandan so'ng, moliyaviy hisobot tasdiqlangan sana va xulosa berilgan sana oraliq muddati davomida tekshirilgan korxonada amalga oshirilgan muomala yuzasidan ma'lumotga ega bo'lsa, bunday holda oraliq muddat davomida sodir etilgan muomalaning muhimligini va aniqlangan holat bo'yicha berilgan xulosaga o'zgartirish kiritishning zarurati (auditor fikriga ta'siri)ni baholashi, mazkur holatni tekshirilgan korxonada rahbariyati bilan muhokamadan o'tkazishi hamda korxonada rahbariyatidan tuzilgan moliyaviy hisobotga tegishli o'zgartirish yoki tuzatish kiritish maqsadida rasmiy so'rov jo'natishi talab etiladi.

Shuningdek, auditorlik tashkilotining so'rovi tekshirilgan korxonada tomonidan avvalgi moliyaviy hisobotga tegishli o'zgartirish kiritish orqali qondirilsa va o'zgartirilgan moliyaviy hisobot auditorlik tashkilotiga etkazilishi ta'minlansa, auditorlik tashkiloti ham avvalgi auditorlik xulosasini yangilangan moliyaviy hisobot tasdiqlangan sana bo'yicha tegishli tuzatishlarni kiritish orqali yangilashi talab etiladi. Ushbu holatda tekshirilgan korxonada auditorlik tashkilotining so'rovida ko'rsatilgan moliyaviy hisobot tuzilgan sanadan keyin sodir bo'lgan muomalalar bo'yicha o'z hisobotiga tuzatishlar kiritmasa, agarda oraliq davrdagi aniqlangan tafovut jiddiyligini, moliyaviy hisobot ko'rsatkichlari ishonchliligi to'g'risidagi xulosa uchun javobgarlik korxonada rahbariyati zimmasiga o'tishini yozma ravishda ogohlantirishi lozim. Yuqoridagi holatda auditorlik tashkiloti tekshirilgan korxonada rahbariyatini berilgan xulosaga tuzatish kiritilgunga qadar moliyaviy hisobot va xulosadan foydalanuvchilar hamda boshqa uchinchi shaxslarga auditorlik xulosasi va korxonada moliyaviy hisobotini taqdim etmaslik zarurligini yozma ravishda ogohlantirishi, agarda imkoni bo'lsa, korxonaning moliyaviy hisoboti va xulosasidan foydalanuvchilarni ham ulardan foydalanmaslik bo'yicha xabardor qilishi zurrur.

Shuningdek, moliyaviy hisobot tasdiqlangan sana va xulosa berilgan sana oraliq muddati o'rtasida tafovut mavjudligi navbatdagi moliyaviy hisobotni tayyorlash davrida aniqlansa, auditorlik tashkiloti kelgusi davr bo'yicha moliyaviy hisobot



auditing xulosasiga zaruriy axborotlarni kiritish sharti bilan amaldagi xulosa va moliyaviy hisobotga tuzatish kiritishni korxonadan so‘ramasligi mumkin. Auditorlik tashkilotlarida moliyaviy hisobot tuzilgan sanadan keyin amalga oshirilgan muomalalarni o‘rganish bo‘yicha auditorlik harakatlari auditorlik tashkilotining ichki standartlari va auditorning ish hujjatlarida aniq va to‘liq bayon etilishi maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Meliev I.I. Auditorlik tekshiruvini utkazish uslubiyati: muammo va echimlar: Monografiya-T.: “VNESHINVESTPROM”, 2020. - 191 b.
2. Mehmonov S.U. Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va ichki audit metodologiyasini takomillashtirish: i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dis. avtoref. Toshkent-2018, 77 b.
3. Hamdamov B.Q. O‘zbekiston iqtisodiyotining hisob va hisobot tizimida auditorlik nazoratini rivojlantirishning uslubiy asoslari: i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dis. avtoref. Toshkent – 2007, 33 b.
4. Qo‘ziev I.N. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida auditorlik hisobotini tuzish va umumlashtirish metodologiyasini takomillashtirish: i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dis. avtoref. Toshkent-2017, 70 b.